



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



MAKTABLarda BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR

Kenjayeva Dilobar Zafarjon qizi

SamDCHTI, Ingliz tili fakulteti Xorijiy til va adabiyoti

2-bosqich 2334-guruh talabasi

+998992241624

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim sifatini yanada yuksaltirish uchun quyiladigan eng muhim qadamlardan biri bu, har tomonlama zamon bilan hamnafas fikrlaydigan, o‘z ustida doim ishlaydigan va doimo izlanishda bo‘ladigan o‘z kasbining fidoiy o‘qituvchi va professional kadrlarni kelajak avlod uchun yetkazib berishdir. Shu munosabat bilan qator mакtab va bilim dargohlarida o‘qituvchi va o‘quvchilarga keng ko‘lamdagi shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda.*

Texnika asri bo‘lmish 21- asr, ya’ni zamonaviy asr talab qilgan maktablarni foydalanishga topshirish bo‘yicha Prezidentimiz tashabbusiga ko‘ra ayni kunlarda, maktablarning tashqi ko‘rinishi, jihozlanishiga yangicha yondashuv boshlangan. Lekin maktablardagi o‘qituvchi va direktorlar keng dunyoqarashga ega zamon bilan hamnafas fikrlaydigan mutaxassis va kadrlarning mavjud emasligi, biz kutgan va yetishishimiz shart bo‘lgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Shuning sababi o‘laroq, Pedagogika va keying hayotini o‘quvchilarga sifatli ta’lim va bilim berguvchi mahoratlari o‘qituvchilarni ommaga olib chiquvchi yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlashni tubdan qayta ko‘rib chiqish juda dolzarb vazifadir.

Kalit So‘Zlar: Umum ta’lim tashkilotlari, o‘qituvchi, boshqaruvchilik, menejerlik, rekonstruksiya, ichki zamonaviy nazorat tizimi, axborot kommunikatsiyasi texnologiyalari, byetjet, reyting.

Kirish: So‘ngi yillarda, boshqa tizimlardan o‘zining muhim qirralari bilan ajralib turguvchi, ta’lim tizimi, barcha bosqich va muhim jabhalarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha qonun va qarorlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvii tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida 2017 yil 30-sentyabrdagi PF-5198-SONLI ommaga taqdim etgan qarori asosida Xalq ta’limi vazirligining boshqaruv tizimi tubdan takomillashtildi, muhim va hamma uchun birdek bo‘lgan, vazifa va faoliyat yo‘nalishlari belgilab berildi. Yaqin orada, vazirlik rahbariyatida muhim o‘zgarishlar amalga tatbiq qilinib, o‘quv-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik mahorat va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini olish kirish, o‘qituvchilarning omma orasidagi mavqeini takomillashtirish orqali ta’lim sifatini yuksaltirish bo‘yicha ko‘pdan-ko‘p muhim vazifalar ilgari surildi.

2019 yil aprelida O‘zbekiston Prezidenti 2030-yilga qadar Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish bo‘yicha kontseptsiyasini tasdiqdan muvaffaqiyatli o‘tdi. Ta’lim





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



infratuzilmasini mustahkamlash va yanada keng doirada olib borish hamda o‘qitish metodika va usullarini takomillashtirishdan tashqari, konsepsiyada talabalar va o‘quvchilar berilayotgan ta’lim manbalarini o‘zlashtirishini baholashning xalqaro tadqiqoti – PISA reytingiga ko‘ra O‘zbekiston 2030 yilga qadar jahonning 30 ta etakchi mamlakatlari qatoriga kirishi maqsad qilib qo‘yilgan.

Maktablarda va boshqa o‘quv dargohlarda o‘qituvchilar va talabalarning amaliy va nazariy mahoratining past ko‘rsatkichda ekanligi, ta’lim sifati talab etiladigan ko‘rsatkich va me’yorda emasligi, o‘rta ta’lim muassasalarini bitirayotgan bitiruvchilarning bilim darajasining etarli emasligi tufayli oliy ta’lim muassasalarining talabalari safida emasligini, sifat tarkibi yuqori bo‘lmagan abiturientlardan kelib chiqqan yani avlod talabalardan tayyorlangan o‘qituvchilarning etarli darajada raqobatbardosh emasligi kabi muammolar asosiy masala o‘qituvchining tajribasi va mahorati bilan bog’liqligini ko‘rsatyapti. Chunki maktabdagagi ta’lim sifati undagi o‘qituvchilar saviyasidan yuqori bo‘lولmaydi.

Ta’lim sifatiga o‘z ta’sirini o‘tkazguvchi boshqa omillar va sabablarning mavjudligini ta’kidlovchi fikrlar ham ko‘p bildiriladi. Shulardan eng ko‘zga tashlanganlaridan biri, bu — hozirgi kundagi maktablarda har bir sinfda o‘quvchilar sonining meyordan ortiqligi.

Bunday olib qaraganda, kam sonli o‘quvchilarga dars berish, ko‘p sonli o‘quvchilarga dars berishdan ko‘ra, ancha qulayroq va osonroqdek his qilinadi. Ammo, bu ham kam sonli o‘quvchilarga dars berish, ta’lim sifatini yuqori natijaga olish chiqish , degani ham emas.

21-asrning 2000-yillari boshlanishida ta’lim islohotini boshlagan rivojlangan mamlakatlarda sinflardagi o‘quvchilar sonini kamaytirish o‘qitish sifatini ta’minlashning muhim yo‘llaridan biri deb, hisoblangan. Keyingi tahlillar bunday yondashuv kutilgan natijani taqdim etmaganini, ko‘rsatdi. Evropa Ittifoqining deyarli barcha va Osiyo mintaqasining bir qator davlatlari ana shu yo‘ldan borib, ta’limga xarajatni sezilarli darajada oshirgan. Ammo, ularning faqat bir nechta ta’lim sifatining sezilarli yaxshilanishiga erishgan, aksariyatida o‘qitish sifati o‘zgarmasdan qolgan yoki hatto pasaygan.

TA’LIM SIFATINI OSHIRISH BO‘YICHA ISLOHOTLAR, YECHIMLAR VA MUAMMOLAR

Hamma uchun birdek a’yonki, yaqin oradagi vaqtga qadar o‘qituvchilar faoliyati doirasida darslarni ko‘zlangan sifat buyicha tashkillashtirish va pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishga to‘sinqlik qiladigan bir qator ob’ektiv muammolar haligacha o‘z yechimini topmagan. Turli tuman tadbirlarga va har xil hasharlarga o‘qituvchi va o‘quvchilarni ommaviy jalb qilish , turli hisobotlar va “menden ketguncha egasiga yetguncha” qabilidagi hujjalarni tayyorlash bilan bog‘liq byurokratik to‘siqlar oxir-oqibat o‘qituvchilarni ta’limga aloqasi bo‘lmagan turli tuman ikir-chikir vazifalarni bajaruvchi oddiy ijrochilarga aylantirdi. Rahbariyat tomonidan xalq ta’limi tizimida olib borilayotgan islohotlar tufayli bu muammo va kamchiliklarni kamaytirish va oldini olish borasida tizimli va ma’lum bir qolipga solingan ishlar amalga oshirilmoqda. Maktab o‘quvchilarida chet tilining





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish uchun zamonaviy usul va texnologiyalardan foydalanish kerak. Bugungi kunda "o‘qitish texnologiyasi" tushunchasi umuman qabul qilinmaydi. Bir tomonidan, o‘qitish texnologiyasi - bu o‘quv ma'lumotlarini qayta ishlash, taqdim etish, o‘zgartirish va taqdim etish usullari va vositalarining kombinatsiyasi bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, bu o‘qituvchining o‘quv jarayonida o‘quvchilarga zarur texnik yoki axborot vositalaridan foydalangan holda qanday ta’sir qilishi haqidagi fandir. anglatadi. O‘qituvchining pedagogik mahorati - bu dastur va qo‘yilgan ta’lim maqsadlariga muvofiq kerakli mazmunni tanlash, eng yaxshi o‘qitish uslub va vositalarini qo‘llashdir. Ta’lim texnologiyalarining mohiyatiga oid ko‘plab qiziqarli ta’riflar mavjud.

Biroq, hozirgacha qilingan say – harakatlar va erishilgan natijalar insonni quvontirmaydi. Chunki , bu natijalar orqali davlatning ta’lim tizimidagi jahon hamjamiyatdagi o‘rni ancha past. Afsuski, ayrim davlat mansabdorlarining o‘qituvchilarga nisbatan hurmatsizlik va qo‘pol munosabati hamon davom etmoqda.

Xulosa qisqa qilib aytganda, ta’lim dasturini amalga oshirishni ta’minlovchi ta’lim muassasasi infratuzilmasidagi o‘zgarishlar haqida tavsiflaydi. Ta’lim dasturi ta’lim maqsadlarining dolzarbliji, mazmunning innovatsionligi, qo‘llanilayotgan ta’lim metodikalari va o‘quv-uslubiy majmualarning zamonaviy talablarga javob berishliligi, ya’ni ta’limning muhimlilagini va zamonaviyligini ta’minlaydigan barcha jihatlarni ochib berish mumkin. Rivojlanish dasturida ta’lim jarayonini sifat, qulaylik va samaradorlikni oshirish yo‘nalishida ta’minlashning huquqiy, tashkiliy, moliyaviy, boshqaruv va moddiy sharoitlarini o‘zgartirishga e’tibor qaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. TOLIPOVA J, Numonova N. Talim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiya “ Xalq talimi”, jurnali, 3-soni.
2. Faberman B.l. Ilg’or pedagogik texnologiyalar.- Toshkent : O‘ZFa “Fan” nashr,.2000.
3. G’afforova T. va boshqalar. Ta’limning ilg’or texnologiyalari.- Qarshi: “Nasaf”, 2003.
4. Asqar Zunnunov. Pedagogika nazariyasি. .-T,:”Aloqachi”,2006.

